UDK: 316.6;172;323;316.74 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss3/a207**

MILLIY MA'NAVIYATNING TAHDIDLAR OBYEKTIGA AYLANISHINING SABABLARI

REASONS FOR BECOME AN OBJECT OF THREATS TO NATIONAL SPIRITUALITY

ПРИЧИНЫ СТАТЬ ОБЪЕКТОМ УГРОЗ НАЦИОНАЛЬНОЙ ДУХОВНОСТИ

Eshova Hurriyat Xurramovna[1]

[1]**Eshova Hurriyat Xurramovna** – "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti dekan o'rinbosari

Annotatsiya

Maqolada ma'naviyat va milliy ma'naviyat tushunchalari xususida so'z boradi. Shuningdek bugungi globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatning turli tahdidlar obyektiga aylanishining sabablari to'g'risida fikr mulohazalar yuritilgan.

Аннотация

В статье рассматриваются понятия духовности. Также в условиях современной глобализации обсуждаются причины превращения националной духовности в объект различных угроз.

Abstract

The article deals with the concepts of spirituality and national spirituality. Also, in the conditions of today's globalization, the reasons for national spirituality becoming an object of various threats are discussed.

Kalit so'zlar: *globallashuv, ma'naviyat, milliy ma'naviyat, millat, tahdid, obyekt, subyekt, xavf-xatar.*

Ключевые слова: *глобализация, духовность, национальная духовность, нация угроза, объект, субъект, опасность.*

Key words: *globalization, spirituality, national spirituality, nation threat, object, subject, danger.*

KIRISH

Ma'lumki, inson va jamiyat - bir-biri bilan uzviy aloqada va muayyan qonun-qoidalar asosida rivojlanib boradi. Inson jamiyatdan tashqarida o'zining haqiqiy mohiyatini yo'qotadi. Biroq jamiyat insonlarning shunchaki yig'indisidangina iborat emas. Jamiyat odamlar o'rtasida amal qiladigan real munosabatlarni ham qamrab oladi. Bunday munosabatlar kishilarni oila, urug', qabila, millat, davlat va nihoyat, insoniyat hamjamiyatiga birlashtiradi. Odamlar yig'indisini xis etish, hamda kuzatish mumkin. Buni iloji bor. Biroq odamlar o'rtasidagi ijtimoiy-ma'naviy munosabatlarni ko'rish, kuzatish yoki aniq xulosa berish murakkab holat hisoblanadi, chunki ular yashirin xarakterga ega bo'lib, jismsiz, nomoddiy ko'rinishdadir.

Jamiyat hayotida ana shunday munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Demak, insonlar bir-birini inkor etishi, o'zlarini yagona har narsani anglaguvchi, boshqalardan aqlliroq va to'g'ri fikr yurituvchi, jamiyatdan alohida individual shaxs sifatida mavjud deb o'ylashlari mumkin. Lekin har qanday sharoitda ham ular ijtimoiylik munosabatlari ichida qoladilar va jamiyatning g'oyalari bilan birga yashaydilar. Ana shu jarayonda muayyan bir jamiyatda yashayotgan kishilar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi yagona vosita sifatida ma'naviyat masalasi yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

"Ma'naviyat" haqida fikr yuritganimizda, uning tarbiyaviy, yo'naltiruvchi, himoya, meros va qadriyat funksiyalari mavjudligini ham alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Shu jihatdan u inson, millat va mamlakat hayotidagi boqiy qadriyatdir. Keltirilgan funksiyalarning har biri o'zining aniq yo'nalishiga ega bo'lib, inson, millat, xalq, davlat va jamiyatning to'laqonli rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Agar ana shu funksiyalar "ma'naviyat"ga xos bo'lmaganida, uni o'rganishga zaruriyat ham bo'lmagan bo'lar edi. Shu ma'noda, ma'naviyatga ta'rif berganda ana shu funksiyalarning o'rni va ahamiyatini ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlarimizdan kelib chiqqan holda, ma'naviyatga quyidagicha ta'rif berish mumkin: ma'naviyat insonning botiniy dunyosini ifoda ettiruvchi, uni boshqa mavjudodlardan farq qildiruvchi ongli faoliyati, intellektual salohiyati ta'sirida shakllanib, sayqal topib boruvchi, amaliy hayotida uni muayyan maqsadlarga yo'naltiruvchi, turli zararli ta'sirlardan himoya qiluvchi ruhiy voqelikdir. Bu ta'rifda biz ma'naviyatga xos bo'lgan:

a) insonni boshqa mavjudotlardan farq qildiruvchi;

b) uning ongli faoliyati ta’sirida shakllanishi;

v) uni ma’lum maqsadga yo‘naltiruvchi;

g) uni turli zararli ta’sirlardan himoya qiluvchi to‘rtta jihatga asosiy e’tiborni qaratdik. Fikrimizcha, ma’naviyat ana shu jihatlari bilan inson, millat, xalq, davlat va jamiyat hayotida amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ta’rifdagi “ruhiy voqelik”ni ma’naviyatning maqomi darajasida ifoda ettirishimizga sabab shuki, u o‘zining ta’sir o‘tkazish imkoniyati bilan moddiy kuch darajasiga ko‘tarilishini nazarda tutyapmiz. Bu amaliyotda insonning xatti-harakatlari, turli hodisa, voqea va jarayonlarga bo‘lgan munosabatlari o‘z ifodasini topadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Har bir soha va yo‘nalishda ma’naviyat muhim o‘rin egallashini inobatga olgan holda uning millat ma’naviyatidagi o‘rni va darajasi juda ahamiyatli ekanligini shu o‘rinda ta’kidlash joiz. Millat ma’naviyati xususida so‘z borar ekan bu o‘rinda o‘z-o‘zidan milliy ma’naviyat maydon markaziga chiqadi. Xo‘sh, “milliy ma’naviyat” nima? Garchand “milliy” so‘zi kundalik hayotda juda ko‘p qo‘llaniladi. Xususan, milliy siyosat, milliy iqtisod; milliy manfaat; milliy adabiyot, milliy xarakter; milliy mintalitet, milliy ong, milliy urf-odat; milliy an’ana va qadriyatlar, milliy bog‘; milliy turmush va boshqa bir qator tushunchalarda “milliy” so‘zi qo‘llaniladi. Ularni qo‘llashda, sodda qilib aytganda, uning u yoki bu millatga taalluqligi va u bilan bog‘liqligi nazarda tutiladi. Lekin ilm uchun bunday sodda qarashning o‘zi yetarli emas. Chunki bunday qarash “milliy” so‘zining to‘laqonli mazmun-mohiyatini, maqomi va imkoniyatlarini to‘la anglab yetish imkonini bermaydi. Shuning bilan birga, bitta shu so‘zni qo‘llash orqali millatga xos bo‘lgan go‘zallik va uning ruhiyatiga xos u yoki bu voqea-hodisa va jarayonlarga bo‘ladigan munosabatlar mohiyatini ham yetarli darajada anglab bo‘lmaydi.

Milliy ma’naviyat haqida fikr yuritar ekanmiz, bu tushunchani bilib olishni «millat» tushunchasini izohlashdan boshlash maqsadga muvofiq. «Millat» so‘zi «o‘zak», «tub mohiyat», «negiz» degan ma’noni bildiradi. «Millat» so‘zi arab tilida quyidagi uch ma’noni anglatadi: birinchi - din, mazhab; ikkinchi - ummat; uchinchi - xalq, qavm. Millat so‘zi qur’oni Karimda ham qo‘llanilgan. Qur’onda har bir millat vakili o‘z milliy qadriyatlarini rivojlantirishi savobli ish, o‘z millatidan, qavmidan kechib, boshqa millatga o‘tib olishi esa gunoh deb ta’riflangan.

Milliy ma’naviyat, avvalo tarixiy hodisa ekanligi bilan ajralib turadi. U bir kunda, bir yilda, balki bir asrda ham mukammal shakllanmaydi. Milliy ma’naviyat tarixi millatning ma’naviy takomil jarayoni bilan bog‘liq. Unda ba’zan asrlar kunlarga va aksincha, kunlar asrlarga teng bo‘lishi mumkin. Milliy ma’naviy kamolot zamonda, ya’ni millatning butun tarixi davomida yuz beradi.

Endi milliy ma’naviyatning millatni harakatga keltirishdagi o‘rniga qaytib, shuni alohida ta’kidlash lozimki, u millatga xos xususiyatlarning oddiy yig‘indisi emas, balki uni tashkil qilgan har bir elementlarning rivojlanishidan iborat murakkab hodisadir. Ana shu jarayonda milliy ma’naviyat takomillashadi va uning yangi qirralari yuzaga keladi.

“Milliy taraqqiyot” faqat millatning moddiy farovonligini ta’minlashga xizmat qiladigan intellekt bilan cheklanmaydi, balki uning o‘zini o‘zi asrash zaruriyatini anglab yetishga xizmat qiladigan intellektni ham shakllantirish bilan ham bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Yana ham aniqrog‘i, bugungi insoniyat erishgan yuksak intellektual salohiyat nafaqat uning moddiy farovonligiga, shuningdek, o‘zini u yoki bu millat vakili sifatida asrash zarurligini anglashning rivojlanishiga ham xizmat qilishi lozim. Bu yana millatning ma’naviyatining qaysi darajada rivojlanishiga borib taqaladi.

Haqiqatan ham, millat mavjud bo‘lar ekan, unga har doim tahdidlar ham yuzaga kelaveradi. Bu tahdidlar zaminida ikkinchi tomonning (ya’ni tashqaridan yuzaga kelishi) manfaatlari turadi. Bu manfaatlar:

a) yerosti zahiralari, hududlarini kengaytirish bilan bog‘liq manfaatlar;

b) mamlakatlar va ularda yashayotgan millatlar ustidan hukmronlik qilishga qaratilgan manfaatlar;

v) zo‘ravonlikka moyillikning mavjudligi va ma’nan ustuvorlikka erishish va dunyoda o‘z hukmronligini o‘rnatish kabi manfaatlar turadi.

Ular yuksak taraqqiyotga ko‘tarilgan mamlakatlarning rivojlanayotgan mamlakatlar, taraqqiyotdan orqada qolayotgan mamlakatlar va ularda yashayotgan millatlarga nisbatan olib boradigan siyosati hisoblanadi. Bu manfaatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri, kuch ishlatib ham amalga oshirish mumkin-ku. Shunday ekan, nega bugun hukmronlikka da’vogar mamlakatlar kuch bilan emas, balki milliy ma’naviyatni barbod qilish yo‘li bilan o‘z maqsadlarini amalga oshirish yo‘lidan bormoqdalar?

Aslida, tarixiy taraqqiyot davomida kuch ishlatish yo‘li bilan ularni amalga oshirish holatlari bo‘lganligi ma’lum. Ammo bugun kuch ishlatish yo‘li bilan o‘zga mamlakatlar va ularda yashayotgan millatlarni ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklariga egalik qilish tajribasi o‘zini oqlamadi.

Millatni insonlar moddiy kuchga aylantiradi, ular orqaligina u “men”ligini namoyon eta oladi. Biz millatning g‘ururi, iftixori, manfaati, or-nomusini real insonlarning birikuvidan iborat bo‘lgan insonlar orqali tasavvur etamiz va tushunamiz. Insonlarsiz millat bo‘lmaganidek, millatsiz inson ham bo‘lmaydi. Bu haqda yuqorida ustozimiz prof. S.Otamurotovning fikrlarini keltirgan edik. Haqiqatdan ham, ana shu tuyg‘ular insonlarda qay darajada kuchli bo‘lsa, ular millatga ko‘chib o‘tadi va uni shu darajadagi real moddiy kuch sifatida namoyon etadi. Millatni tashkil etgan insonlardagi ana shu tuyg‘ular ularning o‘z manfaatini anglashida, milliy ma’naviyatini har qanday tahdidlardan asrashida qudratli kuchdir. Millatlarda bunday tuyg‘ular, kuch va qudratning mavjudligi, nafaqat uning ma’naviyatini asrashda, shuningdek, moddiy va ma’naviy boyliklarini asrash, rivojlantirishda asosiy omili sifatida amal qiladi.

Bu jarayonda keng ma’nodagi milliy ma’naviyat nafaqat millatni real subyekt sifatida saqlaguvchi va rivojlantiruvchi, shuningdek, uning barcha boyliklarini himoya qiluvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Bugun milliy ma’naviyatlarning turli tahdidlar obyektiga aylanishining yana bir sababi dunyoning tez o‘zgarayotgani, insonlar hayot ritmlarining jadallashuvi, milliy jarayonlarda sodir bo‘layotgan turli ziddiyatli vaziyatlardir. Bugungi kunga kelib dunyoda ziddiyatlar oshgandan oshib bormoqda. Bunda turli kuchlarning o‘z maqsadlarini amalga oshirish maqsadida milliy, diniy va mafkuraviy omillardan juda ustalik bilan foydalanayotganligi, milliy ong, dunyoqarash, ruhiyat va tafakkur tuyg‘ularida ham o‘zining ifodasini topmoqda. Ularning o‘zlaridan begonalashuviga olib kelmoqda. Bu, o‘z navbatida, milliy birlikning zaiflashuvini yuzaga keltirmoqda va milliy ma’naviyatning yemirilishida ham o‘z ifodasini topmoqda.

Hayot ritmlarining jadallashuvi ham milliy ma’naviyatning tahdidlar obyektiga aylanishiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda. Bugun insonlarning kundalik tashvishlari oshib borishi, ularning o‘z muammolari atrofida bog‘lanib qolishi, o‘z navbatida, bu ular ruhiyatidagi jamoaviylik tuyg‘ularining zaiflashuviga ham olib kelmoqda. Bu insonlararo hurmat, o‘zaro hamkorlik va yordam kabi qadriyatlarning ham so‘nib borishini yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda yana ma’naviyat, xususan, milliy ma’naviyatga e’tibor kuchayishi sodir bo‘ladi. Chunki ana shu omilni rivojlantirish va undan samarali foydalanish bilangina yuzaga kelgan salbiy holatlarni, garchand butunlay tugatishning iloji qolmayotgan bo‘lsada-da, uni yumshatish, ma’lum darajadagi ijobiy tomonga yo‘naltirish mumkin bo‘ladi.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlarimizga asoslanib, aytish mumkinki, milliy ma’naviyatlarni tahdidlardan asrashda ulardagi turli-tumanlikni tugatish emas, balki ularning rivojlanishiga shart-sharoit yaratish bilan bir qatorda millatlararo manfaatlarni muvozanatga keltirish imkoniyatlarini amalga oshirish lozim. Zero, milliy ma’naviyatlarning tahdidlar obyektiga aylanishi obyektiv jarayon ta’sirida emas, balki subyektiv omillarning ta’sirida yuzaga kelmoqda. Bu jarayonning istiqbolda yanada murakkablashib borishi xavfining kuchayishi mumkinligini bugungi kunda katta qudratga ega bo‘lgan kuchlarning hatti-harakatlari, intilishlari, ularning turli makkorona uslublardan foydalanayotganligi yana bir tasdiqlamoqda. Shu ma’noda ham amal qilayotgan va yuzaga kelayotgan tahdidlarning oldini olish milliy ma’naviyatni asrab qolishga qaratilgan faoliyatda dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

9. Ўзбекистон Республикаси Президентининг ПҚ-3160-сон “Маънавий- маърифий ишлар самарадорлигини ошириш ва соҳани ривожлантиришнинг янги босқичга кўтариш тўғрисида “ги Қарори, // Халқ сўзи. 2017 йил, 28 июнь.

10. Мирзиёев Ш.М Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021йил.

11. Yuldasheva D.M. The Methods Of Speesh Development Of Presshool Shildren. Epra Internashinal Jurnal Of Multidissiplinary Researsh(Ijmr). Impast Fastor: 7.6.11.November.

12. YD Maxamadalievna, MX Madaminovna. Gnoseological Substantiation of Cognitive Development Children. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology 2 (4), 7-11